

## BOLALARING PSIXIK RIVOJLANISHIDA KORREKSIYA VA KOMPETENSIYA O'RNI.

**Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti „Maktabgacha ta'lim” kafedrasi mudiri.

**Botirova Guluzro Begali qizi**

Andijon Davlat Pedagogika instituti “Maktabgacha ta'lim” fakulteti logopediya yo`nalishi talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarning psixik rivojlanishida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishda korreksiya va kompetensianing ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, pedagogik va psixologik yondashuvlar, korreksion ishlarda innovatsion usullar va ularning natijalari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** bolalar psixik rivojlanishi, korreksion faoliyat, kompetensiya, psixologik yondashuvlar, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, innovatsion pedagogika, art-terapiya, o'yin terapiyasi, psixologik muammolarni hal qilish, ta'lim va tarbiya usullari, stem texnologiyalari, kognitiv-bihevioral terapiya

Bola rivojlanishining psixik jarayoni – bu uning shaxsiyati, kognitiv qobiliyatları va hissiy-intellektual holatining shakllanishi bilan bog'liq murakkab jarayondir. Ayrim bolalarda rivojlanish jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ularning vaqtida aniqlanishi va korreksion yondashuvlar yordamida to'g'rilanishi muhimdir.

Korreksiya – bu psixik rivojlanishdagi nuqsonlarni aniqlash va ularni to'g'rilashga qaratilgan jarayon. Korreksion faoliyat quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Bola psixikasidagi buzilishlarni tuzatadi.
- Ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- Hissiy-intellektual barqarorlikni oshiradi.

Korreksiya jarayonida mutaxassislar tomonidan individual yondashuvlar tanlanadi va bolaga mos keluvchi usullar qo'llaniladi.

Kompetensiya bu:

- Ta'limg-tarbiyada bolaning kognitiv, kommunikativ va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.
- Mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish.
- Ijtimoiy moslashuvni ta'minlash uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'plami.

Kompetensiya va korreksion faoliyat bir-birini to'ldiradi. Bolaning kognitiv va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus dasturlar va metodikalar ishlab chiqiladi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya-bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi, 3-modda hisoblanib, bolaning ilk rivojlanish yoshidan to 7 yoshgacha bo'lgan davrigacha uning har tomonlama kamol topishini ta'minlashga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiradi. Mana shu jarayonda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishga e'tiborni qaratish davr talabi sifatida dolzarbligini hech qachon yo qotmaydi. Chunki barkamol avlod tarbiyasi har qaysi davlatning eng asosiy ustuvor vazifikasi hisoblanadi. Bu borada birinchi prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edilar; " Har qaysi davlat, har qaysi millat o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsoldida shu xalqqa xos eng go'zal fazilatlarni namoyon etadigan, uning ezgu orzu- niyatlarini amalga oshirishda mardlik va fidoyilik ko'rsatishga qodir bo'gan o'z tayanchi va suyanchini ko'rishi tabiiydir".

Psixik rivojlanish va uning buzilish sabablari

Bolalarning psixik rivojlanishi ko'p omillarga bog'liq:

Genetik omillar: Irsiy kasalliklar yoki tug'ma patologiyalar.

Ijtimoiy omillar: Oila muhiti, tarbiya usullari va jamiyatdagi ta'sirlar.

Biologik omillar: Tug'ilishdagi shikastlanishlar, yuqumli kasalliklar.

Psixik rivojlanishdagi buzilishlar ko‘pincha kognitiv qobiliyatlar, hissiy muvozanat va ijtimoiy moslashuvda cheklovlarga olib keladi.

Hozirgi vaqtida bolalarning psixik rivojlanishida korreksiya va kompetensiyani oshirish uchun quyidagi innovatsion usullar qo‘llaniladi:

- Art-terapiya: Bolaning hissiy holatini tasviriy san’at orqali ifodalash.
- O‘yin terapiysi: Bolaning psixologik rivojlanishini rag‘batlantirish uchun maxsus o‘yinlar.
- Robototexnika va STEM texnologiyalari: Texnologiyalar yordamida bolalarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash.
- Kognitiv-bihevioral yondashuvlar: Bolaning muayyan vaziyatlardagi munosabatlarini tahlil qilish va tuzatish.

Bolalarning psixik rivojlanishi ularning shaxsiyati, ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlari va hissiy barqarorligini belgilaydi. Korreksion faoliyat va kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha to‘g‘ri tashkil etilgan tizim bolalar rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Innovatsion yondashuvlar va mutaxassislarning malakasi bu jarayonni samarali tashkil qilishga yordam beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abidova N.Z. Maxsus psixologiya (Tiflopsixologiya). -T.: Barkamol fayz media, 2017.
2. Ayupova M.Yu. Logopediya. -T.:O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. – 2017
3. Muminova L.R., Abidova N.Z va boshqalar. Maxsus psixologiya. -T.:O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
4. Maxsus pedagogika (Mutaxassislika kirish) Xamidova M. Toshkent. Fan va texnologiya. O‘quv qo‘llanma
5. Pulatova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: Fan va texnologiyalari, 2014
6. X. V. Muxamedov, "Defektologiya asoslari", Toshkent, 2020.
7. D. A. Belkin, "Surdopedagogika", Moskva, 2018.